PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

CHO‘LPON HIKOYALARIDA LEKSIK BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Xalimjonova Sarvinoz Ilhomjon qizi
Toshkent Davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
4-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22998712

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Cho‘lponning ayrim asarlari — “Do‘xtir Muhammaddiyor”, “Qurboni jaholat” hikoyalaridagi leksik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Yozuvchi asarlaridagi so‘z va birikmalarning faqat nominativ ma’no ifodalash bilan cheklanmay, qahramon ruhiy holatini ochish, davr va milliy-madaniy koloritni yaratish vazifalari yoritiladi. Tadqiqot davomida Cho‘lponning so‘z tanlash mahorati va leksik birliklardan badiiy maqsadda foydalanish jihatlari aniqlanadi.

KALIT SO‘ZLAR: Cho‘lpon, milliy kolorit, leksik birlik, ruhiy holat davr, lingvopoetik, “Do‘xtir Muhammaddiyor”, “Qurboni jaholat”.

Badiiy matn tilini o‘rganishda unda qo‘llangan lisoniy birliklarning nafaqat lug‘aviy-semantik xususiyatlari, balki ularning badiiy-estetik vazifalarini aniqlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan lingvopoetik tahlil badiiy asar tilining mazmun va shakl uyg‘unligini ochib berishga xizmat qiladi.

M. Yo‘ldoshev badiiy matn lingvopoetikasi masalalarini tadqiq etar ekan, badiiy matnda til vositalarining poetik aktuallashuvi, ya’ni muayyan lisoniy birliklarning badiiy-estetik maqsadda qo‘llanishiga alohida e’tibor qaratadi. Olimning tadqiqotlarida badiiy matnni lingvopoetik jihatdan tahlil qilish tamoyillari hamda undagi til birliklarining badiiy vazifasi masalalari yoritilgan. N. Mahmudov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan badiiy matnning lisoniy xususiyatlarini o‘rganishga doir ishlarda ham til birliklarining matn tarkibidagi funksional xususiyatlarini aniqlash masalasiga e’tibor qaratilgan. Badiiy matnni lisoniy tahlil qilishda leksik, grammatik va boshqa til birliklarining matn mazmunini shakllantirishdagi o‘rni muhim hisoblanadi. Shu nazariy qarashlardan kelib chiqib, Cho‘lpon hikoyalaridagi leksik birliklarni faqat ularning lug‘aviy ma’nosi asosida emas, balki **kontekstual ma’nosi, qahramon ruhiy holatini ifodalashi, davr va milliy-madaniy muhitni yaratishi hamda asarning badiiy-estetik mazmunini shakllantirishdagi vazifasi** nuqtayi nazaridan tahlil qilish mumkin.

Shoir, drmmaturg, nosir — Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon o‘zining jaholatga qarshi millatga chaqiriqlari, ilm-ma’rifatga, ozodlikka da’vat etish va yurt ravnaqi uchun chekkan barcha zahmatlarini uning asarlari orqali o‘rganib, “ozodlik kuychisi” deya bilamiz. Adib o‘z she’rlarida, drammalarida hattoki hikoyalarida ham o‘z davrining eng dolzarb muammolarini, ya’ni bilimsizlikni, jaholatni, erk-ozodlikni ko‘tarib chiqqan. Masalan, “Do‘xtir Muhammaddiyor” hikoyasida ilm o‘rganishning qanchalar foydali ekanligini, vatanga qanchalar nafi tegishini yorqin obrazlar orqali ifodalagan bo‘lsa, “Qurboni jaholat” hikoyasi orqali bu mavzuning aksi o‘laroq, ilmsizlik, qing‘irlikning fojiaviy oqibatlari k o‘rsatilib beriladi. Har ikki hikoyada ham qahramonlar nutqi,

voqea-hodisalar tasviri va muallif bayonida q o‘llangan leksik birliklar asar mazmunining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, ayrim so‘z va birikmalar qahramonlarning ruhiy holati, yashash muhiti hamda davrning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, Cho‘lponning so‘z tanlash mahorati va leksik birliklarning badiiy matndagi o‘rni e’tiborga molikdir.

Har ikki asar tilini tahlil qilar ekanmiz, “Do‘xtir Muhammaddiyor” hikoyasida Hoji Ahmad tilidan aytilgan “milliy tarbiya” birikmasi e’tiborga molik.
— … “Agar qabul qilsangiz shunda bizim havlimizda turub shunga yaxshigina **milliy tarbiya** bersangiz, so‘ngra hukumat maktabida o‘qutsam”, - deydi.
Milliy tarbiya leksemasi orqali yozuvchi odob-axloq, yaxshi tarbiya berish tushunchasidan tashqari, millatning ma’naviy-axloqiy qadriyatlari, urf-odatlari va o‘ziga xos tarbiya mezonlarini anglatib o‘tgan.
“… Muhammaddiyor **xafachilikdan** sil (chaxotka) kasaliga yo‘luqdi.”
“Xafa” leksemasi nutqimizda “kimdandir xafa”, “ko‘ngli og‘rigan” birikmalarda qo‘llanib, ruhiy holatni ifodalaydi. Ya’ni “xafachilik” ma’no kontekstiga ko‘ra, uzoq davom etgan siqilish va iztirob kabi ma’no vazifasida kelganki, natijada sil kasalligiga duchor bo‘ldi. Mazkur qo‘llanish orqali yozuvchi qahramonning ichki kechinmasini kuchaytirib, asarga yanada ruhiy bo‘yoqdorlik bergan.
“Chin ayting! Bu yigirmanchi asr madaniyatidan turubsiz! O‘n kunlik yo‘lni o‘n soat qilg‘on bu yigirmanchi asr madaniyatining ayg‘irini ko‘rub vatandoshlarim nima ochub qoladilar?”
Mazkur parchada **“chin ayting”** birikmasi alohida lingvopoetik ahamiyatga ega. **“Chin”** leksemasi “rost, haqiqiy” ma’nosini ifodalab, **“aytmoq”** fe’li bilan birikkan holda haqiqatni ochiq aytishga undash mazmunini yuzaga keltirgan. Buyruq shaklidagi **“ayting”** fe’li esa qahramon nutqiga qat’iylik va da’vatkorlik ohangini yuklaydi. Birikmaning aynan **“Chin ayting!”** tarzida mustaqil, undov ohangida qo‘llanishi qahramonning fikrga urg‘u berishini va tinglovchini befarq bo‘lmaslikka undashini kuchaytiradi. Shu jihatdan mazkur birlik qahramon nutqining emotsional-ekspressivligini oshirish hamda matndagi ma’rifiy-da’vat ruhini kuchaytirishga xizmat qilgan.
Bundan tashqari hikoyada qo‘llangan **rijo etmoq** leksemasi “umid qilaman”, **tarbiyai badani** birikmasi esa “badan tarbiya”, “jismoniy tarbiya” ma’nolarida kelib, davr tiliga xoslik hamda milliy koloritning namoyon bo‘lishiga xizmat qilgan.

D. Quronov badiiy voqelik ijodkorning dunyoqarashi va badiiy konsepsiyasi asosida qayta yaratilishini ta’kidlaydi. Cho‘lponning “Qurboni jaholat” hikoyasida ham davrning ijtimoiy-ma’naviy muammolari muayyan leksik birliklarning kontekstual ma’nosi orqali ochib beriladi. Jumladan, Eshmurodning **“Bu bizning Turkistonimiz g‘aflatdan uyg‘onurmi? Yo‘qmi?”** degan o‘ylarida **“g‘aflat”** leksemasi alohida semantik yuk kasb etadi. G‘aflat so‘zi lug‘aviy jihatdan beparvolik, e’tiborsizlik, ogoh bo‘lmaslik ma’nolarini anglatsa-da, mazkur kontekstda uning ma’nosi kengayib, **xalqning ilm-ma’rifatdan uzoqligi, jaholat va ijtimoiy loqaydlik holati**ni ifodalashga xizmat qiladi. **“G‘aflatdan uyg‘onmoq”** birikmasidagi uyg‘onmoq fe’li esa o‘zining bevosita ma’nosidan ko‘ra ko‘chma ma’noda qo‘llanib, **ma’naviy va ilmiy jihatdan uyg‘onish** mazmunini yuzaga chiqaradi. Shunday qilib, g‘aflat leksemasi hikoyada oddiy holat nomi bo‘lib qolmay, davrning ijtimoiy-ma’naviy muammolarini ifodalovchi muhim lingvopoetik vositaga aylanadi.

Bundan tashqari, **“jaholat”** leksemasi asarning g‘oyaviy mazmunini ochib beruvchi muhim birliklardan biridir. Eshmurodning **“Oh, jaholat!!! Bitduk, bitduk…”** degan ichki kechinmasida jaholat so‘zi oddiy **ilmsizlik yoki nodonlik** ma’nosidagina emas, balki jamiyatning ma’rifatdan uzoqligi, mavjud ijtimoiy muammolar va inson taqdiriga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi muhit ma’nosida qo‘llangan.

Olib borilgan tahlillar Cho’lpon hikoyalari poetikasida leksik tanlovning badiiy-estetik mazmunni shakllantiruvchi muhim omillardan biri ekanini ko‘rsatadi. Adib qo‘llagan leksik birliklar matn tarkibida faqat atash yoki nomlash vazifasini bajarib qolmay, kontekst ta’sirida qo‘shimcha semantik va ekspressiv qatlamlar hosil qiladi. “Do‘xtir Muhammaddiyor” va “Qurboni jaholat” hikoyalari misolida aniqlangan bunday xususiyatlar Cho‘lpon nasrida til vositalarining mazmun va shakl uyg‘unligini ta’minlash, davr ruhini badiiy ifodalash hamda obrazlarning ichki olamini yoritishdagi imkoniyatlari keng ekanini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. — Toshkent: Fan, 2008.
2. Yo‘ldoshev M., Isaqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
3. Cho‘lpon, Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li. Hikoya va tarjimalar to‘plami. — Toshkent: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2023.
4. Cho‘lpon, Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li. Hikoya va tarjimalar to‘plami. — Toshkent: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2023.
5. Cho‘lpon, Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li. Hikoya va tarjimalar to‘plami. — Toshkent: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2023.
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. — Toshkent: Noshir, 2019.